

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY
RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI
TASVIRIY SAN'AT FAKULTETI MAHOBATLI RANGTASVIR
KAFEDRASI TASVIRIY VA AMALIY BEZAK SAN'ATI (monumental
bezak san'ati) YO'NALISHI 2-BOSQICH MAGSTRI**

Abdullayeva Gulhayo Abdullayevna

**“MARKAZIY OSIYODA BUYUK IPAK YO'LINING MADANIYAT
SHAKLLANISHIDAGI TUTGAN O'RNI” MAVZUSINING
MINIATYURA
KOMPOZITSIYASIDAGI TALQINI**

Biz bilamizki Buyuk ipak yo'lining savdo aloqalari, rivoji, qolaversa turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniyatiga ta'siri hamda xalqlar do'stligining uzilmas rishtalari keng miqyosda barqarorligi va aholining farovon yashagan damlari Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi. Buyuk bobokolonimiz Sohibqiron Amir Temur barpo etgan adolat poydevori ustiga qurilgan davlatning siyosati, ijtimoiy hayoti, aholining to'kin-sochinlikda yashashi, ayniqsa qo'li gul hunarmand ustalarning mohirona yaratgan nodir san'at asarlari, hamda ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan allomalarning dong'i butun dunyoga ovoza bo'lgandi. Bu davlatning Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgani esa savdo-sotiq aloqalari gurkirab yashnagan, rivoj topgan markaz ekanligidan ham dalolat beradi.

Samarqand XV asr boshlarida Osiyo va Yevropa xalqlarining Markaziy Osiyo orqali olib borgan keng ko'lamdagi savdoning markazi bo'lgan. Samarqanddan Kichik Osiyoga, O'rta dengizga, Xitoyga va Hindistonga olib boruvchi jahon ahamiyatiga molik savdo yo'llari o'tgan. (N. I. Lyonov).¹

Shu boisdan, bitiruv malakaviy ishimni “Markaziy Osiyoda Buyuk ipak yo'lining madaniyat shakllanishidagi tutgan o'rni” – deb nomladim. Ijodiy ishimda temuriylar davri muhitini yoritishga urinib ko'rdim. Butun jahon “Yer yuzining sayqali” – deb nom bergan Samarqandning go'zalligiga yanada ko'rk qo'shib turgan Registon majmuasi bugungi kunga qadar o'z tarovatini yo'qotmagan. Registon ansamblini tashkil etib turuvchi Sherdor madrasasini kompozitsiyamning markazida tasvirladim. Sababi shundan iboratki, XV asrdagi Markaziy Osiyo to'g'risida so'z yuritganimizda beixtiyor ko'z oldimizda Samarqand va uning moziydan sado berib turuvchi savlatli me'moriy yodgorliklari gavdalanadi.

¹UNESCO, BMT “Amir TemurJahontarixida” Parij, 1996 yil.

Kompozitsiyamning chap tomonida Xitoy arkalaridan biri va uning atrofida xitoy xalqi vakillarini ko'rishimiz mumkin. Bu tasvirlar bilan Buyuk ipak yo'lining dastlabki savdo yurishlari Sharqdan ya'ni Xitoy mamlakatlaridan Markaziy Osiyoga tomon bo'lganligini ifodalamoqchi bo'ldim. Buyuk ipak yo'lining "Ipak yo'li" – deb nom olishiga ham Xitoyning harrir, nafis ipak matolari sababdir. Savdo yo'llari nihoyatda uzun va yurishlar mashaqqatli bo'lganligi sabab yo'llarda toliqqan yo'lchi savdogarlarning hordiq chiqarishlari uchun karvonsaroylar qad ko'targan. Xuddi shunday karvonsaroylar Xitoy davlatida ham bo'lganligi sababli kompozitsiyaning chap tomonida karvonsaroyning qisman bir ko'rinishini tasvirladim. Bizga ma'lumki, Buyuk ipak yo'lining transport vositalari bu cho'l kemalari, ya'ni tuyalar bo'lgan. Tuyalardan tashkil topgan uzun-uzun karvonlar bepoyon cho'llar orqali manzillariga yetganlar. Buning aksini ijodiy ishimning orqa fonida kuzatishimiz mumkin.

Kompozitsiyamning asosini namoyon markazida tasvirlangan temuriylar davlatining iqtisodiy rivojlanishi, chet el davlatlari elchilari bilan aloqalar hamda savdo-sotiq munosabatlari ko'rinishlari tashkil etadi. Bu davrda savdo munosabatlariga kirgan hunarmandlarning matolari, shoyi-gazlamalari, sifatli charmlar, "Sulton qog'ozi", uy-ro'zg'or metall buyumlari, jumladan kulol ustalarning o'ta mohirona ishlagan sopol buyumlari to'risida alohida aytib o'tish lozim deb bilaman. Amir Temur va Temuriylar davrida qimmatbaho matolar orasida kimhob gazlamasi alohida o'rin tutadi. Manbalarda yuqori lavozimli kishilarning uy jihozlari orasida kimhobdan tikilganlari ham eslatib o'tilgan. Jumladan, ko'rpa-to'shak, boshqa qimmatbaho buyumlar, shuningdek Qur'onni saqlash uchun qimmatbaho kimhobdan tikilgan xalta va hokazolar. Yozma manbalarda ayniqsa kimhob to'nlar tez-tez tilga olingan. Amir Temur saroyiga o'zga yurtlardan kelgan elchilarga kimhob to'nlar kiydirilgan. Masalan, Samarqandga Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klaviho bilan kelgan kishilarga ham shunday to'nlar kiydirilgan. Bu davrda hunarmandlar shaharning madaniyatli tabaqasi guruhiga mansub edi. Shoirlar, musiqachi-yu sozandalar, muarrixlarning bir qismi badavlat hunarmandlar va mayda savdogarlar orasidan yetishib chiqqan. Kompozitsiyamning markazida asosan bu davrda gullab yashnagan hunarmandchilik turlaridan bo'lgan kulolchilik namunalarini aks ettirganman. Kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun Samarqand atrofidagi yerlar tuprog'idan unumli foydalanilgan. Rui Gonsales de Klavihoning e'tirof etishicha, bu eng yaxshi tuproq hisoblangan. Hunarmandlar kulollar turli idish-tovoqlar yasashgan. Amir Temur qal'asi hududida topilgan XV asr arxeologik osori-atiqalari orasida harxil kosa katta va kichik laganlar, tog'ora, shuningdek chiroq kabi uy-ro'zg'or buyumlari fikrimiz dalilidir. Muayyan toifadagi zodagonlar oltin va kumush hoshiyalangan qimmatbaho idishlardan foydalanishgan. O'zga

yurtlardan kelgan mehmonlar esa oltin va kumush qadahlardagi sharoblar bilan siylanganlar. Shubhasiz, hunarmandchilikning yuksalishi ko'p jihatdan ichki va tashqi savdoning umumiy holatiga bog'liq edi. Shuning uchun Temur va uning vorislari mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan tijoratchilikning kengayishiga katta ahamiyat berdilar. Bu davrda davlat hududlari va viloyatlari bo'ylab kesib o'tgan barcha karvon yo'llarida qator katta-kichik rabotlar, karvonsaroylar va xonaqohlar qurilardi. Natijada karvon qatnovi jonlanib, ichki savdo gavjumlashdi. Movarounnahr va Xurosonning markaziy shaharlarida tepasi tim qilib yopilgan yangi-yangi bozor – chorsularning soni ko'payib, rastalar kengaydi.

Klaviho Samarqand bozorlarida bug'doy va guruchning mo'lligi, arzonligi haqida gapirib, shahar hunarmandchiligi mahsulotlarini ham qayd qiladi: “ Bu yerning boyligi faqat yemakliklarning mo'l-ko'lliginidagina emas, balki o'zida ko'plab ishlab chiqariladigan ipak matolar: atlas, kimhob, har xil ip va jun to'qima mollar, mo'ynali va ipakli po'stinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligidadir”. “ Bu shaharda oldi-sotdi uchun qulay maxsus savdo rastasining mavjud emasligi tufayli, podsho shahar bo'ylab katta ko'cha chiqarishni, uning ikki tomoniga mol sotish uchun rasta va do'konlar qurishni buyurdi. Bu ko'cha shaharning bir chetidan boshlanishi va butun shahar orqali o'tib, ikkinchi chetiga borib yetishi kerak edi. Podshoh ko'rsatib bergan yo'nalishda ko'cha o'tkazila boshlandi. Ko'cha yo'nalishidagi uy-joylar, kimniki bo'lishidan qat'iy nazar, buzib tekislandi... ko'chani keng olib uning har ikki tomoniga savdo do'konlari qurishdi, har bir do'kon oldida oqtoshlar bilan qoplangan. Baland kursilar o'rnatildi. Barcha do'konlar juft-juft qilib bir biriga tutashtirildi. Ko'chaning tepasi esa boshdan oyoq tim qilib ravoqsimon shaklda yopildi. Yorug'lik tushishi uchun unga qator darchalar o'rnatildi. Do'konlar qurib bitirilishi bilanoq , ularga savdogarlar o'rnashar va turli mollarni sotishga kirishardilar. Ko'chaning har-har yerida hovuzlar kavlangan bo'lib,ular suvga to'ldirib qo'yilgandi... Kunduz kuni ishlagan kishilar kech kirishi bilan uy-uyalariga ketishar va ularning o'rniga kechasi ishlash uchun boshqalari kelishar edi, ayrimlari uylarni buzar, boshqalari esa yer tekislar va uchinchilari qurilish bilan band edi... Bunday katta qurilish yigirma kundasn ozroq muddatda amalga oshirilgan, shubhasiz, kishini hayratga soladi”, – deb hikoya qilgan edi Klaviho.² Ko'p tarmoqli Buyuk Ipak yo'li Movarounnahr shaharlarini Hindiston, Eron, Volga bo'yi, hozirgi Afg'oniston, Xitoy, Turkiy shaharlari bilan bog'lar edi. Bu davrda O'rta Osiyo shaharlarining Sharq mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalari Buyuk Ipak yo'lining an'anaviy tarmoqlari orqali amalga

²UNESCO, BMT “Amir TemurJahontarixida” Parij, 1996 yil.

oshirilgan. Ijodiy ishimning o'ng tomonida Yevropa mamlakatlaridan kelgan elchilar savdogarlarning tashrifini tasvirlashga harakat qilganman. Yevropa muhitini kompozitsiyamda aks ettirish uchun Ispaniyaning qadimiy Arklaridan birini ko'rsatib o'tdim va bu ark orqali kirib kelayotgan chet ellik mehmonlarning tashrifini chet eldan bizning yurtimizga tomon rivojlanish, savdo aloqalari va do'stlik yo'llari ma'nosini anglatadi. Buyuk Ipak yo'lida vujudga kelgan munosabatlar nafaqat savdo aloqalarini rivojlantirishga balki podshohlar hamda ko'plab zodagonlarning munosabatlari mustahkamligi uchun ya'ni ularning bir birlariga sovg'a-salomlar yuborilishi uchun ham keng imkoniyatlar yaratgan. Amir Temur Ispaniya qiroli yuborgan sovg'alarni qabul qilib olar ekan, juda mamnun bo'lgan edi. Ular orasida Amir Temur xotinlari uchun qizil movut, shuningdek, ov lochinlari ham bo'lgan. Termizda ispan elchilarini kutib olishga chiqqan choparga Florensiya ko'ylagi sovg'a qilganlar, Ispaniya qiroli saroyiga yuborilgan Amir Temur elchisi Samarqandga ispancha kiyim-boshda qaytib kelgan. Xuddi shu holatdagi Temuriylar elchisini ispan libosida tasvirlaganman. Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari Arab mamlakatlaridan ham o'tgan va bu yurtlardan kelgan buyumlar bizning aholimiz orasida ham keng muomalada bo'lgan. Kompozitsiyamning o'ng tomonidan kelayotgan chet ellik mehmonlar va savdogarlarning orasida ham arab mamlakatlari vakillarini ham borligini ko'rishingiz mumkin. Amir Temur Samarqandni butun hududning ichki va tashqi savdosini boshqarib turuvchi markaz sifatida ko'rishni hohlar edi. Samarqandning ichki va tashqi savdosi hunarmandlar, qishloq ahli, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida tovar ayirboshlashni muvofiqlashtirib turuvchi markaz rolini bajardi. U qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini bozor bilan bog'lab turdi, qishloq mehnatkashlarini qo'shimcha hom ashyo, himmahsulot va ba'zi hunarmandchilik mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarishga rag'batlantirib, ular xo'jaligining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu borada Samarqand yaqinida joylashgan qishloqlar, jumladan, Amir Temur buyrug'i bilan bunyod etilgan qishloqlar ancha uzoqda joylashgan va natural xo'jalik saqlanib qolgan qishloqlardan tubdan farq qilar edi.

“ Amir Temur o'z saltanatida boshqaruv va savdo-sotiqqa katta e'tibor berdi. U o'zi tanlab olgan amaldorlarga nisbatan juda qattiqqo'l edi. U barcha viloyatlarda, ayniqsa, uning yo'qligida tartib hamda adolat bo'lishini hohlardi. Uzoq yurtlarga qilgan yurishlaridan qaytar ekan, u hisobbotlar tuzar va yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilar edi. Hech narsa uning nazaridan chetda qolmagan ko'rinardi”³

3 Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya (Mas'ul muharrir O'.Tojixonov). – T., Adolat, 1996.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurtimiz Buyuk Ipak yo'li markazi bo'libgina qolmay, u Sharq va G'arb aloqalarini mustahkamlab turgan yuksak darajadagi madaniyat tilsimi, xalqlar do'stligining yorqin namunasi hisoblangan. Bunday faxrli tariximizni o'z ijodiy ishlarimizda yoritish esa Vatanimiz oldidagi biz kabi yoshlarning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T., 1997.
2. Karimov I.A. Savdoyidan Ipak yo'lini tiklash sari. Asarlar, P-jild. – T., O'zbekiston, 1996.
3. UNESCO, BMT “Amir Temur Jahon tarixida” Parij, 1996 yil.
4. Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya (Mas'ul muharrir O'.Tojixonov). – T., Adolat, 1996. – 88 bet.

Foydalanilgan internet saytlari

www.ziynet.uz

Ilmiy rahbar:

professor R.Xudayberganov